

## WEB ILOVALAR YASASH JARAYONI JAVASCRIPT DASTURIY TILI

Inomov Doniyorjon Ilxomjon o'g'li  
I.Karimov nomidagi TDTU Qo'qon filiyali

### Annotatsiya

Maqolada web ilovalar yaratishning umumiy tavsifi va asosiy tamoyillari haqida ilmiy va amaliy asosda ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ushbu jarayoning bosqichlari haqida to'xtalib o'tilgan va javascript tiliga alohida urg'u berilgan.

**Kalit so'zlar:** web sayt, JavaScript web ilovalar, computer texnologiyalari, dasturiy taminot.

### KIRISH

Hozirgi kunda Web texnologiyalar bilan qiziquvchilar ko'payib bormoqda va teng ravishda Web texnologiyalarga talab ham ortib bormoqda. Hozirda Web texnologiyalarni o'rgatuvchi saytlar juda ko'p va ularning ichidan aniq ma'lumot toppish qiyin bo'lishi mumkin. Web dasturlash o'quv web-saytida Web texnologiyalar bo'yicha ko'plab ma'lumotlar topish mumkin<sup>1</sup>.

Web-sayt (ingliz tilidagi website: "web, tarmoq, o'rgimchak to'ri" va sayt - "joy", ma'nosi "joy, segment, tarmoqning bir qismi") - mantiqiy jihatdan bog'liq bo'lgan web-sahifalar majmuasi; shuningdek, server tarkibining joylashuvi. Odatda, Internet sayti noyob manzilga ega bo'lgan ma'lumotlar majmuosidan tashkil topgan bo'ladi va foydalanuvchi tomonidan butun ma'lumot sifatida ko'riladi.

Web-sayt, elektron hujjatlar tizimi (ma'lumotlar fayllari va kod) kabi jismoniy shaxsga yoki tashkilotga tegishli bo'lib, kompyuter domenida umumiy domen nomi va IP-manzil yoki bitta kompyuterda mahalliy sifatida mavjud bo'lishi mumkin. "Iqtisodiyot va huquq" jurnali maqolasida har bir saytning domen nomi bilan aralashmaslik kerak bo'lgan o'z nomiga ega bo'lishi taklif qilingan edi. Mualliflik huquqi nuqtai nazaridan ushbu sayt kompozitsiyasidir, shuning uchun sayt barcha mualliflik huquqlari bilan himoya qilinadi.<sup>2</sup>

Jamiyatdagi barcha web-saytlari World Wide Webni tashkil qiladi, bu yerda aloqa (World Wide Web) dunyo hamjamiyatining axborot segmentlarini bir butun sifatida birlashtiradi-sayyoralar miqyosidagi ma'lumotlar bazasi va kommunikatsiyasidir.

<sup>1</sup> Tomson L., Velling L. Razrabotka Web-prilojeniy na PHP i MySQL. -K.: "DiaSoft", 2001. - 672 s.

<sup>2</sup> Ryabsev M.A., Xakimov U.B. —Web dizayn san'atijl. Oq'uv qo'llanma. «Faylasuflar» nashriyoti. Toshkent – 2014

Mijozlar saytlarga (serverlarga) to'g'ridan-to'g'ri kirish uchun HTTP protokoli maxsus ishlab chiqilgan<sup>3</sup>.

Javascript–bu Webni gipermatnli sahifalarini klient tomonida ko'rish tsenariyalarini boshqarish tili. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsa, Javascript-bu na faqat klient tomonidagi dasturlash tili. Liveware Javascript tilining avlodi bo'lib, Netscape serveri tomonida ishlovchi vosita bo'ladi. Ammo Javascript tilini mashhur qilgan narsa bu klient tomonida dasturlashdir.

Javascriptning asosiy vazifasi-HTML-konteynerlar atributlarining qiymatlarini va ko'rsatuvchi muhitining hossalirini HTML-sarlavxalarni ko'rish jarayonida foydalanuvchi tomonidan o'zgartirish imkoniyatlarida, boshqacha aytganda ularni dinamik sarlavxalar qilish (DHTML). Yana shuni aytish joizki, sarlavxalar qayta yuklanmaydi. Amalda buni, masalan, quydagicha ifodalash mumkin, sarlavxaning fonini rangini yoki xujjatdagi rasmni o'zgartirish, yangi oyna ochish yoki ogoxlantirish oynasini chiqarish.

“JavaScript” nomi Netscape kompaniyasining xususiy maxsuloti. Microsoft tomonidan amalga oshirilgan til rasman Jscript deb nomlanadi. Jscript versiyalari Javascriptning mos versiyalari bilan mos keladi (aniqroq qilib aytganda oxirigacha emas).

Javascript-ECMA (European Computer Manufacturers Association-Evropa Kompyuter Ishlab Chiqaruvchilar Assotsiyatsiyasi) tomonidan standartlashtirilgan. Mos standartlar quydagicha nomlanadi ECMA-262 va ISO-16262. Ushbu standartlar bilan Javascript 1.1ga taqriban ekvivalent ECMAScript tili aniqlanadi. Eslatish joizki, bugungi kunda Javascript ning hamma versiyalari ham ECMA standartlariga mos kelavermaydi. Mazkur kurs yoki qo'llanmada barcha hollarda biz Javascript nomidan foydalanamiz.

Javascriptning asosiy xususiyatlari. Javascript-bu Internet uchun katta bo'lmagan klient va server ilovalarni yaratishga mo'ljallangan nisbatan oddiy ob'ektga yo'naltirilgan til. Javascript tilida tuzilgan dasturlar HTML-xujjatning ichiga joylashtirilib ular bilan birga uzatiladi. Kurish dasturlari (brauzerlar-browser ingliz suzidan) Netscape Navigator va Microsoft Internet Explorer xujjat matniga joylashtirilgan dasturlarni (Scriptkod) uzatishadi va bojarishadi.

Dasturashda foydalaniladigan ushbu yuqoridagi *Javascript* interpretatorli dasturlash tili hisoblanadi. *Javascript*da tuzilgan dasturlarga foydalanuvchi tomonidan kiritilayotgan ma'lumotlarni tekshirayotgan yoki xujjatni ochganda yoki yopganda biror bir amallarni bajaruvchi dasturlar misol bo'lishi mumkin.

JavaScript da yaratilgan dasturlarga misol sifatida foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma'lumotlarni tekshiruvchi, dokumentni ochish yoki yopish vaqtida qandaydir amallarni bajaruvchi dasturlarni keltirish mumkin. Bunday dasturlar foydalanuvchi

<sup>3</sup> Zakirova T.A., Ibragimov E. U., Masharipov A.K., Musayeva M.A. -Web- dasturlash||. Darslik. Toshkent–2010

tomonidan berilgan kursatmalarga – sichqoncha tugmachasini bosilishiga, ma'lumotlarni ekran orqali kiritishiga yoki sichqonchani sahifa buylab siljilishiga kura ish bajaradi. Bundan tashqari JavaScript dagi dasturlar brauzerning uzini va dokumentning atributlarini ham boshqarishi mumkin.

JavaScript dasturlash tili sintaktik jihatdan Java dasturlash tiliga, ob'ekli modellashni istisno qilgan holda, o'hshab ketsada, lekin ma'lumotlarni statik tiplari va qat'iy tiplashtirish kabi xususiyatlarga ega bulmaydi. JavaScript da Java dasturlash tilidan farq qilib, sinf (klass) tushunchasi bu tilning asosiy sintaktik qurilmasi hisoblanmaydi. Xulosa qilib aytganda Web dasturlash o'quv web – saytini yaratish jarayonida web sayt va ilovalar yaratishning bir qancha bilimlarini o'zlashtirish lozim. HTML tilida va unga yordamchi CSS stillar jamlamasi orqali murakkab strukturaga ega web saytlarni verstka qilish bo'yicha ko'pgina bilimga ega bo'ldish darkor.

#### ADABIYOTLAR

1. Tomson L., Velling L. Razrabotka Web-prilojeniy na PHP i MySQL. -K.: "DiaSoft", 2001. - 672 s.
2. Ryabsev M.A., Xakimov U.B. -Web dizayn san'atil. Oq'uv qo'llanma. «Faylasuflar» nashriyoti. Toshkent – 2014
3. Zakirova T.A., Ibragimov E. U., Masharipov A.K., Musayeva M.A. -Web-dasturlash. Darslik. Toshkent–2010
4. Ziyonet.uz, Wikipedia.org, Inlab.uz, Tami.uz, Cyberforum.ru, stackoverflow.com.